



TRANSBORDER PROCESSING OF PERSONAL DATA IN THE COMMERCIAL CIRCULATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN INTO THE CONFLICT-LEGAL ORDER

Kurbonov Ikbol Ismatullo ugli

Tashkent State Law University

Faculty of International Law and Comparative legislation 3rd year

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18995893>

ARTICLE INFO

Received: 05th March 2026

Accepted: 12th March 2026

Online: 13th March 2026

KEYWORDS

Personal data, cross-border data transfer, conflict of laws, commercial turnover, digital economy, data localization, information security, international legal order.

ABSTRACT

This article analyzes the issues of regulating the process of transborder processing of personal data in the commercial circulation of the Republic of Uzbekistan in the conflict-law order. It is scientifically proven that in the digital economy, the international exchange of personal data is expanding, which is causing conflicts between the legal systems of different countries. The article discusses the legal mechanisms of cross-border data transfer based on the Law of the Republic of Uzbekistan "On Personal Data", other regulatory legal documents on the protection of personal data, as well as international experience.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING TIJORAT AYLANMASIDA SHAXSIY MA'LUMOTLARNI TRANSCHEGARAVIY QAYTA ISHLASHNI KOLLIZION-HUQUQIY TARTIBGA SOLISH

Qurbonov Iqbol Ismatullo o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti

Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik fakulteti 3-kurs

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18995893>

ARTICLE INFO

Received: 05th March 2026

Accepted: 12th March 2026

Online: 13th March 2026

KEYWORDS

Shaxsiy ma'lumotlar, transchegaraviy ma'lumot uzatish, kollizion huquq, tijorat aylanmasi, raqamli iqtisodiyot, ma'lumotlarni lokalizatsiya qilish, axborot xavfsizligi, xalqaro huquqiy tartibga solish.

ABSTRACT

Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasining tijorat aylanmasida shaxsiy ma'lumotlarni transchegaraviy qayta ishlash jarayonini kollizion-huquqiy tartibga solish masalalari tahlil qilinadi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida shaxsiy ma'lumotlarning xalqaro miqyosda almashinuvi tobora kengayib borayotgani, bu esa turli davlatlarning huquqiy tizimlari o'rtasida kolliziyalar yuzaga kelishiga sabab bo'layotgani ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Maqolada O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonuni, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlar hamda xalqaro tajriba asosida transchegaraviy ma'lumot uzatishning huquqiy mexanizmlari yoritiladi.



Kirish

Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va global iqtisodiy integratsiya jarayonlari natijasida shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash masalasi zamonaviy huquq tizimining eng dolzarb muammolaridan biriga aylandi. Raqamli iqtisodiyot, elektron tijorat, xalqaro xizmatlar bozori hamda transmilliy kompaniyalar faoliyatining kengayishi natijasida shaxsiy ma'lumotlar davlat chegaralaridan tashqariga uzatilmoqda va turli yurisdiksiyalarda qayta ishlanmoqda. Shu sababli shaxsiy ma'lumotlarni transchegaraviy qayta ishlash jarayonini huquqiy tartibga solish davlatlarning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida ham ushbu masala so'nggi yillarda huquqiy tartibga solish ob'ekti sifatida shakllanib, milliy qonunchilik tizimida shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishga qaratilgan bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Asosiy qisim

Shaxsiy ma'lumotlar tushunchasi zamonaviy axborot huquqining asosiy kategoriyalaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-iyulda qabul qilingan "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonuning 4-moddasiga muvofiq shunday yoziladi: "Shaxsga doir ma'lumotlar - muayyan jismoniy shaxsga taalluqli bo'lgan yoki uni identifikatsiya qilish imkonini beradigan, elektron tarzda, qog'ozda va (yoki) boshqa moddiy jismda qayd etilgan axborot". [9] Ushbu ta'rif shaxsiy ma'lumotlar doirasiga shaxsning ismi, familiyasi, yashash manzili, aloqa vositalari, biometrik ko'rsatkichlari, ijtimoiy holati, sog'lig'i, moliyaviy ahvoli

kabi ma'lumotlarni ham kiritadi. Shaxsiy ma'lumotlar insonning shaxsiy hayoti bilan chambarchas bog'liq bo'lgani sababli ularni himoya qilish masalasi konstitutsiyaviy darajada kafolatlangan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasida har bir shaxsning shaxsiy hayot daxlsizligi, sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish huquqi mustahkamlab qo'yilgan. "Har bir inson shaxsiy hayotining daxlsizligi, shaxsiy va oilaviy sirga ega bo'lish, o'z sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish huquqiga ega". [10]

Tijorat aylanmasi doirasida shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash ayniqsa muhim ahamiyatga ega. Elektron tijorat platformalari, bank tizimi, telekommunikatsiya xizmatlari, turizm, transport hamda onlayn xizmatlar sohasida faoliyat yurituvchi kompaniyalar mijozlar to'g'risidagi katta hajmdagi ma'lumotlarni yig'adi va qayta ishlaydi. Bunday ma'lumotlar ko'pincha xalqaro serverlarda saqlanishi yoki boshqa davlatlarda joylashgan texnologik infratuzilma orqali qayta ishlanishi mumkin. Shu sababli shaxsiy ma'lumotlarning transchegaraviy harakati huquqiy kolliziyalarni yuzaga keltiradi, ya'ni turli davlatlarning huquqiy normalari o'rtasida ziddiyat paydo bo'lishi ehtimoli mavjud bo'ladi. Kollizion-huquqiy tartibga solish aynan shunday holatlarda qaysi davlat qonunchiligi qo'llanishi kerakligini aniqlashga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonuni shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash bilan bog'liq asosiy munosabatlarni tartibga soladi. Mazkur qonun shaxsiy ma'lumotlarni yig'ish,



saqlash, tizimlashtirish, o'zgartirish, uzatish va yo'q qilish jarayonlarining huquqiy asoslarini belgilaydi. Qonunga ko'ra, shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash faqat ma'lumot subyektining roziligi mavjud bo'lgan taqdirda yoki qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa asoslar mavjud bo'lganda amalga oshirilishi mumkin.[4] Shuningdek, shaxsiy ma'lumotlar bazalari davlat reyestrda ro'yxatdan o'tkazilishi lozim. Bu talab shaxsiy ma'lumotlar bilan ishlovchi tashkilotlarning faoliyatini nazorat qilish hamda ma'lumotlarning noqonuniy tarqalishining oldini olishga qaratilgan.

Transchegaraviy ma'lumot uzatish masalasi ayniqsa xalqaro elektron tijoratda dolzarb hisoblanadi. Masalan, O'zbekiston fuqarosi xalqaro internet-platforma orqali xizmat yoki mahsulot sotib olganida uning shaxsiy ma'lumotlari boshqa davlatda joylashgan serverga uzatilishi mumkin. Bunday vaziyatda ma'lumotlar qaysi davlat qonunchiligi asosida himoya qilinishi masalasi yuzaga keladi. O'zbekiston qonunchiligida shaxsiy ma'lumotlarni chet davlatlarga uzatish faqat ma'lumot subyektining huquqlari yetarli darajada himoya qilinadigan davlatlarga nisbatan amalga oshirilishi mumkinligi belgilangan. [5] Agar ma'lumot qabul qiluvchi davlat shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishning yetarli darajadagi mexanizmlariga ega bo'lmasa, bunday uzatish faqat ma'lumot subyektining aniq roziligi mavjud bo'lgan taqdirda amalga oshirilishi mumkin. O'zbekiston Respublikasida shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish sohasida davlat siyosatini amalga oshiruvchi vakolatli organ sifatida Vazirlar Mahkamasi huzuridagi

Shaxsiylashtirish markazi faoliyat yuritadi. Ushbu organ shaxsiy ma'lumotlar bazalarini ro'yxatdan o'tkazish, ularni yuritish va monitoring qilish hamda qonunchilikka rioya etilishini nazorat qilish bilan shug'ullanadi. Bu institutning mavjudligi shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish tizimining institutsional asosini shakllantiradi.

So'nggi yillarda O'zbekiston qonunchiligida shaxsiy ma'lumotlarni lokalizatsiya qilish tamoyili ham joriy etildi. 2021-yilda qabul qilingan o'zgartishlarga ko'ra, O'zbekiston fuqarolarining shaxsiy ma'lumotlari ularni qayta ishlash jarayonida respublika hududida joylashgan texnik vositalarda saqlanishi lozim.[6] Bu norma transchegaraviy ma'lumot uzatish jarayonini qat'iy nazorat qilish hamda milliy axborot xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan. Shu bilan birga, ushbu talab xalqaro kompaniyalar faoliyatiga ham muayyan cheklovlar kiritadi, chunki ular O'zbekiston fuqarolari haqidagi ma'lumotlarni mahalliy serverlarda saqlash majburiyatiga ega bo'ladilar.

Kollizion-huquqiy tartibga solish nuqtai nazaridan qaralganda, shaxsiy ma'lumotlarni transchegaraviy qayta ishlash bir nechta huquqiy tizimlarning kesishgan nuqtasida yuzaga keladi. Bir tomondan, ma'lumotlarni uzatuvchi davlatning milliy qonunchiligi amal qiladi, ikkinchi tomondan esa ma'lumotlarni qabul qiluvchi davlatning huquqiy talablari qo'llanilishi mumkin. Bunday vaziyatda xalqaro shartnomalar muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga ko'ra, agar xalqaro shartnoma milliy qonunchilikdan farq qiluvchi qoidalarni



belgilasa, unda xalqaro shartnoma normalari ustuvor hisoblanadi. Bu prinsip kollizion masalalarni hal qilishda muhim huquqiy mexanizm sifatida xizmat qiladi.[7] Shaxsiy ma'lumotlarni noqonuniy yig'ish yoki uzatish uchun javobgarlik masalasi ham milliy qonunchilikda alohida tartibga solingan. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi va Jinoyat kodeksiga kiritilgan o'zgartishlarga ko'ra, shaxsiy ma'lumotlarni noqonuniy yig'ish, saqlash, tarqatish yoki uzatish uchun jarimalar hamda boshqa jazo choralarini qo'llash nazarda tutilgan. Agar ushbu harakatlar takroran sodir etilsa yoki og'ir oqibatlariga olib kelsa, jinoiy javobgarlik ham yuzaga kelishi mumkin. Bu normalar shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish tizimining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Xalqaro tajriba ham shaxsiy ma'lumotlarni transchegaraviy qayta ishlashni tartibga solishda muhim ahamiyatga ega. Masalan, Yevropa Ittifoqida amal qiluvchi GDPR (General Data Protection Regulation) reglamenti shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish sohasida eng qat'iy standartlardan biri hisoblanadi. Ushbu reglamentga ko'ra, Yevropa fuqarolarining shaxsiy ma'lumotlari faqat yetarli darajadagi himoya tizimiga ega bo'lgan davlatlarga uzatilishi mumkin. Bu tamoyil ko'plab davlatlarning milliy qonunchiligiga ham ta'sir ko'rsatdi. O'zbekiston qonunchiligida ham shunga o'xshash mexanizmlar joriy etilgan bo'lib, ular shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishning xalqaro standartlariga yaqinlashishni ko'zda tutadi. Tijorat aylanmasida shaxsiy ma'lumotlarni transchegaraviy

qayta ishlash masalasida yana bir muhim jihat – ma'lumot subyekting huquqlarini ta'minlashdir. Shaxsiy ma'lumotlar egasi o'z ma'lumotlari qanday maqsadda yig'ilayotgani, qayerda saqlanayotgani va kimlarga uzatilayotganini bilish huquqiga ega. Bundan tashqari, u o'z ma'lumotlarini o'zgartirish, yangilash yoki o'chirishni talab qilish huquqiga ham ega bo'lishi kerak. Ushbu huquqlarni ta'minlash shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish tizimining asosiy prinsiplari qatoriga kiradi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida shaxsiy ma'lumotlarning iqtisodiy qiymati tobora ortib bormoqda. Kompaniyalar marketing strategiyalarini ishlab chiqishda, mijozlar xatti-harakatlarini tahlil qilishda hamda xizmatlarni individuallashtirishda shaxsiy ma'lumotlardan keng foydalanadilar. Shu sababli shaxsiy ma'lumotlar ko'pincha iqtisodiy resurs sifatida ham qaraladi. Biroq shaxsiy ma'lumotlarning iqtisodiy qiymati oshgani sari ularni himoya qilish bilan bog'liq xavflar ham ortib bormoqda. Ma'lumotlarning noqonuniy tarqalishi, kiberjinoyatlar va axborot xavfsizligi bilan bog'liq tahdidlar shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish tizimini doimiy ravishda takomillashtirishni talab etadi.

O'zbekiston Respublikasida shaxsiy ma'lumotlarni transchegaraviy qayta ishlashni kollizion-huquqiy tartibga solish tizimi hali rivojlanish bosqichida bo'lsa-da, so'nggi yillarda bu sohada muhim qadamlar qo'yildi. Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risidagi qonunning qabul qilinishi, ma'lumotlarni lokalizatsiya qilish talablari joriy etilishi



hamda ma'muriy va jinoiy javobgarlik choralarning kuchaytirilishi ushbu tizimni mustahkamlashga xizmat qildi. Shu bilan birga, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka integratsiya qilish hamda axborot xavfsizligini ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish kelgusidagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, shaxsiy ma'lumotlarni transchegaraviy qayta ishlashni kollizion-huquqiy tartibga solish zamonaviy raqamli iqtisodiyot sharoitida alohida ahamiyatga ega

bo'lgan murakkab huquqiy institutdir. O'zbekiston Respublikasida ushbu sohada shakllanayotgan huquqiy tizim shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlash hamda xalqaro iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish o'rtasida muvozanatni saqlashga qaratilgan. Kelajakda milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga yanada moslashtirish, kollizion-huquqiy normalarni aniqlashtirish hamda transchegaraviy ma'lumot uzatish jarayonining shaffofligini ta'minlash ushbu sohaning yanada samarali rivojlanishiga xizmat qiladi

References:

1. Addressing the Tax Challenges of the Digital Economy, Action 1-2015 Final Report. URL: <https://read.oecd-ilibrary.org/taxation/addressing-the-tax-challenges-of-the-digital-economy-action-1-2015-fmal-report>
2. Sayt OESR - Konsultatsionntiy dokument po Pillar 1. 2019. <https://www.oecd.org/tax/beps/public-consultation-document-secretariat-proposal-unified-approach-pillar-one.pdf>
3. Elektron tijorat ma'muriyatchiligini takomillashtirish va uni yanada rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish to'g'risida qarorlar.
4. [Registration of personal data in Uzbekistan](#)
5. [Uzbekistan Enacts First Data Protection Law - Data Protection - Uzbekistan](#)
6. [Personal data of Uzbek citizens are now required to be stored in Uzbekistan](#)
7. [Law of The Republic of Uzbekistan on Personal Data](#)
8. [O'ZBEKISTONDA ELEKTRON TIJORATNI SOLIQQA TORTISHNING YANGI BOSQICHLARI – тема научной статьи по праву читайте бесплатно текст научно-исследовательской работы в электронной библиотеке КиберЛенинка](#)
9. <http://lex.uz//docs/-4396419>
10. <http://lex.uz//uz/docs/-6445145>